



Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-fevral oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatning asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1- mart holatiga ko'ra, viloyatda 3 754 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 676 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,0 %) Urganch shahriga, 442 tasi (11,8 %) Urganch tumaniga, 419 tasi (11,2 %) Xonqa tumaniga, 335 tasi (8,9 %) Qo'shko'pir tumaniga va 267 tasi (7,1 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2026-yilning yanvar-fevral oylarida 171 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil qilingan bo'lib, shularning 28 tasi Urganch tumaniga, 19 tasi Shovot tumaniga, 17 tasi Xonqa tumaniga, 16 tasi Bog'ot tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni
1-mart holatiga ko'ra



II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4 788,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,1 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	4 788,7	106,1
Urganch shahri	720,5	108,7
Xiva shahri	81,0	112,4
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot tumani	91,0	109,1
Gurlan tumani	118,7	113,8
Qo'shko'pir tumani	171,6	113,2
Urganch tumani	320,4	112,1
Hazorasp tumani	164,2	108,7
Tuproqqal'a tumani	1 660,6	92,4
Xonqa tumani	287,2	109,4
Xiva tumani	97,2	104,8
Shovot tumani	203,0	104,4
Yangiariq tumani	143,1	101,8
Yangibozor tumani	151,6	110,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (27 125,3 ming so'm), Urganch shahrida (4 595,9 ming so'm) o'rtacha viloyat ko'rsatkichidan (2 335,1 ming so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Gurlan tumanida (111,9 %), Qo'shko'pir tumanida (111,3 %), Xiva shahrida (110,8 %), Urganch tumanida (109,6 %) va Hazorasp tumanida (109,6 %) qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-fevral oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 4 508,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,0 % ni tashkil etgani holda, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 0,7 mlrd so'm (0,01 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 245,5 mlrd so'm (5,1 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 40,8 mlrd so'm (1,0 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-fevral oylarida





III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 20 695,4 tonna paxta tolasi (2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 103,4 % ga oshgan), 1 371,3 tonna o'simlik yog'i (132,8 % ga oshgan), 6 061,2 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2,3 marta ko'paygan) hamda 12 301 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (5,3 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral*	2025-yil yanvar-fevral*	2026-yil yanvar-fevral
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	11 752	12 983	12 301
Maxsus yengil avtomobillar, dona	3 355	3 627	5 813
Paxta tolasi, t	23 447,7	2 589,4	20 695,4
Shakar, t	5 085,6	40 578,3	-
O'simlik yog'i, t	928,5	1 182,8	1 371,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	8 190,1	405,0	6 061,2
Paxta chigiti, t	36 609,4	34 568,2	33 844,1
Paxtadan yigirilgan ip, t	1 923,1	1 947,1	2 087,4

**2024-2025-yillarning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,7 % (2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,4 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 248,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,07 % ni (2025-yilning yanvar-fevral oylarida 0,06 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 36,7 % (34,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,0 % (4,2 %), quyi texnologiyali 53,2 % (55,5 %) ni tashkil etgan.





Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-fevral oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar-fevral oylarida 12 301 dona “ Damas ” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga kamaygan), 5 813 dona maxsus yengil avtomobillari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 160,3 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar, donada
yanvar-fevral oylarida





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-fevral oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 73,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 100,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral*	2025-yil yanvar-fevral*	2026-yil yanvar-fevral
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	195,8	220,9	176,5
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	195,8	220,9	176,5
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	38,0	39,8	56,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025 -yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 4,2 % ga kamayganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 49,8 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 26,1 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral*	2025-yil yanvar-fevral*	2026-yil yanvar-fevral
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	1 756 492 ,0	1 411 132,0	930 843,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash	26 742 922,0	30 442 461,0	30 750 208,0


bo'yicha
xizmatlar, ming so'm

Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	4 955 675,0	11 963 033,0	13 169 331,0
---	-------------	--------------	--------------

**2024-2025-yillarning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 576,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 29,7 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-fevral oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 19,0 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab



chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

U. Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

